

Texnologiya fanining servis xizmati yo`nalishini o`qitishda interfaol metodlardan foydalanish

Yusufxodjayeva Firdovusxon Muxtorovna QDPI v.b. dotsenti
email: firdavshonyusufhujaeva@gmail.com , +99890-305-65-82

Annotatsiya: Maqolada Texnologiya fanining servis xizmati yo`nalishini o`qitishda interfaol metodlardan foydalanish haqida ma'lumot berish bilan birgalikda ularga ta'lim-tarbiya berishda an'anaviy o`qitish usullari bilan chegaralanib qolmasdan, interfaol usullardan foydalanish orqali o`qitishning sifat darajasini oshirib, hamda interfaol metodlardan foydalanib texnologiya fanining o`qitish maqsad qilib olingan.

Kalit so`zlar: Interfaol, guruh, tolalar, iplar, gazlamalar, nazoratchilar, kichik guruhlar, sarja (polotno) to`qish, operasiya.

Аннотация: В статье представлены сведения об использовании интерактивных методов в обучении сервисной технологии, а также об уровне качества обучения за счет использования интерактивных методов, не ограничиваясь традиционными методами обучения, а также повышением уровня преподавания с использованием технологий. интерактивные методы – вот цель.

Ключевые слова: Интерактив, группа, волокна, нити, марля, супервайзеры, малые группы, вязание сарджи (холста), операция.

Annotation: The article provides information about the use of interactive methods in the teaching of the service service of technology, and the quality level of teaching through the use of interactive methods, not limited to traditional teaching methods. increasing, and the teaching of technology using interactive methods is the goal.

Key words: Interactive, group, fibers, threads, gauzes, supervisors, small groups, sarja (canvas) knitting, operation.

Mustaqil O'zbekistonimizning ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi innovatsion jarayonlar o'z navbatida ta'lim-tarbiya sohasida ham tubdan o'zgarishlar qilishni talab etmoqda, ya'ni har bir pedagog, mutaxassislarining o'z sohalarida interfaol metodlardan unumli foydalanish zarurati paydo bo'lmoqda. Shu sababli pedagogikada interfaol metodlardan foydalanish bugungi kunning dolzarb va istiqbolli masalalaridan biridir. Chunki, o`quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda an'anaviy o`qitish usullari bilan chegaralanib qolmasdan, interfaol usullardan foydalanish orqali o`qitishning sifat darajasini oshirib, yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Buning uchun o`qituvchilar o`qitishning interfaol turlarini o'z darslarida qo'llay olish mahoratiga ega bo'lishi zarur.

O`quvchilar bilan yangi mavzuni o`rganishga kirishar ekan, o`qituvchi oldida har doim savol tug'iladi: metod qanday tanlanadi, qaysi didaktik materiallardan foydalanish kerak, o`quv vazifalarini qaysi usullar bilan samarali yechish mumkin? Har bir mashg'ulot turining pedagogik maqsadlariga erishish uchun o`qituvchi o`zining intellektual salohiyatini safarbar etish, ilg'or pedagogik

tajribadan foydalanishi va nihoyat,metodni tanlash haqiqiy ijodiy aktga aylanishi lozim.

Umumiy holda metodning tanlanishi ta'lim va tarbiyaning didaktik maqsadlari bilan aniqlanadi. Biroq turli xil pedagogik vaziyatlarda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida faoliyat turlari o'zgarib, o'zaro almashinib turadi. Tabiiyki, bu faoliyat turlariga mos holda o'qitish metodlari ham o'zaro solishtiriladi.

O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlash – bu ularning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirish demakdir. Natijada o'quvchilarga aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta'minlashga sharoit yaratiladi.To'g'ri qo'llanilgan metodlar ob'ektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg'ulotning ilmiy- nazariy darajasini oshiradi.

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact” deb ifodalanib, lug'aviy ma'nosi “inter”- o'zaro, ikki tomonlama, “act”-harakat qilmoq, ish ko'rmoq ma'nolarini anglatadi. Interfaol metodlarga quydagilarni misol qilishimiz mumkin; kichik guruxlarda ishlash, musobaqa, aqliy xujum, baliq skleti, BBB texnologiyasi, klaster, bahs-munozara va boshqalar. Bulardan kichik guruxlarda ishlash usulini texnologiya fanida ko'rib chiqamiz.

Gazlamalar materialshunosligi bilan bog'liq, ularda tolalarni, iplarni va gazlamalarini olinishi, xususiyatlari, ishlatilishi haqida ma'lumotlar berib boriladi. Bunday mashg'ulotlarda o'quvchlarning faolligini oshirish uchuun kichik guruxlarda ishlash usulining rolli o'yin ko'rinishini qo'llash mumkin. Bu usulni qo'llash uchun talabalarni to'rt guruxga bo'linadi [1].

Bunda 1- guruh “Tolalar”, 2- guruh “Iplar”, 3- guruh “Gazlamalar”, 4- guruh “Nazoratchilar” deb nomlanadi. Nomlanishidan ham ayon bo'ladiki, “Tolalar” guruhi a'zolari tabiatda qanday tolalar borligi, tarkibi, tuzilishi va ularning olinishi haqida; “Iplar” guruhi tola turlaridan iplarni olinishi turlari va ishlatilishi haqida ma'lumotlar berishadi; “Gazlamalar” guruhi esa to'quvchilik o'rilishlar, gazlama turlari va ularni ishlatilishi, gazlama qoldiqlaridan unimli foydalanish haqida ma'lumotlarni o'rganib, o'sha tolalar, iplar va gazlamalar timsoliga kirib gaprib berishadi. “Nazoratchilar” guruhi esa yuqoridagi ishlarga ball qo'yib boradilar.

Yana shunday usullardanbiri musobaqa usulini 5-sinfdagi servis xizmati yo`nalishining gazlamalarga ishlov berish bo`limida ko`rib chiqamiz.

O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, mehnat va kasbiy ta'lim berish uchun umumiy bo'lgan quyidagi vazifalar hal etilishi lozim;

o`qishga nisbatan ongli munosabat hosil qilish, fuqaro bo`lib etishish, shaxsning ma`naviy va intellectual kamol topishi, jismoniy rivojlanishi;

mehnatsevarlik, mehnatga ehtiyoj, mehnat kishilariga hurmat;

tejamkorlik, sifatli, ijtimoiy mulk hamda tabiatga nisbatan g`amxo`rlik bilan munosabatda bolish xislatlarini tarbiyalash;

ijtimoiy foydali va unumli mehnatda ishtirok etish uchun zarur bo'lgan mehnat malakalari va o'quvchilarda texnik, texnologik va boshlang`ich iqtisodiy

bilimlar hosil qilish, fan asoslaridan olingan bilimlarni, mehnat faoliyatida qollay olishi.

Bu vazifalarni ijobiy hal etishda texnologiya darslarida olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Umumta'lim maktablarida texnologiya darslarining asosiy qismini amaliy mashg'ulotlar tashkil etadi. Amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish va olib borish, uning samaradorligini oshirish o'quvchilarning qobiliyati, konikma hamda malakalarini rivojlantiruvchi asosiy omillardan biridir.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda amaliy mashg'ulotlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish hozirgi kundagi muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Amaliy mashg'ulotlarni noan'anaviy tarzda olib borish o'qituvchidan qo'shimch mehnat talab etsada, dars samaradorligini va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Biz taklif etmoqchi bo'lgan noan'anaviy dars usuli darsni musobaqa tarzida o'tkazishga asoslangan. Ma'lumki o'quvchilar orasida musobaqa sharoitini yaratish ulardagi intilish, qiziqish, talabchanlik, jamoa uchun jonkuyarlik singari sifatlarni namoyon etadi.

Bu usulda darsni tashkil etish va o'tkazish ishlarini 5-sinfdagi servis xizmati yo'nalishining «Sarja (polotno) to'qish. Gazlamaning o'ng va teskari tomonlarini, bo'ylama va ko'ndalang iplarini aniqlash» mavzusi misolida ko'rib o'taylik [2]. O'qituvchi darsni nazariy qismini o'tib bo'lgandan so'ng, o'quvchilarni 4-5 kishilik

guruhlariga bo'ladi va sardor tayinlaydi. Har bir guruhga bittadan ish stoli ajratiladi. Guruh a'zolari qura tashlash yo'li bilan nomerlanadi. O'qituvchi bajarilgan ish uchun beriladigan ballarni e'lon qiladi.

Shundan so'ng o'quvchilar amaliy ishning bajarish tartibini yana bir bor o'rganib chiqishadi va o'qituvchining ro'xsati bilan o'quvchilar ishni bajarishga kirishishadi.

1-operasiya 1-nomerli o'quvchilar tomonidan, 2-operasiya 2-nomerli o'quvchilar tomonidan va hokazo tartibda bajariladi.

1-nomerli o'quvchilar 1-operasiyani batamom tugatganidan so'nggina 2-nomerli o'quvchilarga ishni boshlashga ro'hsat beriladi. Agar 1-o'quvchi 1-operasiyani bajara olmasa, uning o'rnini ikkinchi 2-o'quvchi egallaydi, lekin bunda bu guruhga jarima ball belgilanadi. Ishni 1-bo'lib bajargan guruhga yuqori ball beriladi. Shu tariqa qolgan guruhlar ham baholanadi. Ish davomida guruh, a'zolari

tomonidan to'plangan ballar ularning bajargan ishlari sifati va hajmiga ko'ra guruh sardorlari tomonidan taqsimlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'quvchilarni guruhlariga bo'lishda ularni bilimi va mehnat malakalarini yaqin bo'lishiga e'tibor berish kerak. Bunday guruhlarning o'quv yili davomida doimiy faoliyat ko'rsatib borishi maqsadga muvofiqdir. Chunki bunda o'quvchilar guruhlarda kichik-kichik jamoa bo'lib ishlash orqali berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida sifatli bajarishga o'rganadilar, ayrim ish usullarini bajarishga qiynalib qolgan o'rtoqlariga yordam beradilar. Shu

orqali o`quvchilarda jamoa bo`lib ishlash, o`zaro yordam ko`satish xislatlari tarkib topadi, ularda mehnat malakalari yanada mustahkamlanadi. Bu esa o`quvchilarning kelgusida mustaqil va ijobiy ishlashiga asos bo`ladi.

Bu darsni olib borish jarayonida quyidagi yutuqlarga erishiladi;

- 1) o`quvchilarda jamoa bo`lib ishlash, bir-biriga yordam ko`satish va nazorat qilish xislatlari shakllanadi;
- 2) musobaqa sharoiti yaratilganligi sababli o`quvchilarning qiziqishlari, talabchanliklari va intiluvchanliklari ortadi;
- 3) dars davomida barcha o`quvchilarni baholash mumkin;

Bunday usullardan foydalanish darsda yaxshi natijalar beradi. O`quvchilar darsni yaxshi tushunadilar va ularning nutqi o`sadi. Bunday usulda dars o`tish o`quvchilarda darsga qiziqish uyg`otadi. O`qitish metodlarini ma`lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil amaliy faolyatni faollashtirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1) X. Z. Ismatullayeva, A.Z. Abdullayev, M. Ismatullayeva. Maxsus materialshunoslik. Oliy o`quv yurtlari uchun o`quv qo`llanma. T.: "Iqtisod-moliya" – 2007.

2) T.A. Ochilov, N.G. Abbasova, F.J. Abdullina, Q.I. Abulniyozov. Gazlamashunoslik. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. T.: "Cho`lpon" – 2003.

3) N.G. Abbasova, A.Z. Abdullayev "Tabiiy ipak chiqarish". Toshkent. 1992 y. -35 b.

4) P.T. Bukayev. "Ip gazlama ishlab chiqarishning umumiy texnologiyasi". Toshkent. 1989 y. -13 b.

5) Мухитдинова, Ж. Р. (2023). РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ ДИДАКТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ НА ЗАНЯТИЯХ ПО ТЕХНОЛОГИИ ШИТЬЯ. Проблемы современного образования, (2), 240-253.